

SHUKUR XOLMIRZAYEV ASARLARIDA MILLIY RUHIYAT MASALASI VA AN'ANAVIYLIK

Akramov Qurbonali Ro'ziqulovich

Termiz davlat universiteti 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7490662>

Annotatsiya: Maqolada Shukur Xolmirzayevning nasriy asarlaridagi insoniylik deya ulug'lanmish buyuk ne'matning o'zbek xalqiga nechog'lik aloqador ekani, ajdodlarga munosib bo'la oladigan avlodlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: insoniylik, qadriyatlar, ajdod, avlod, urf-odat, qushlar, saxiylik, oqko'ngil, ota-ona, bola.

O'zbek xalqi azal-azaldan o'zining samimiyligi, saxiyligi, mardligi va tantiligi bilan tillarda doston bo'lib kelmoqda. O'zbek faqat o'zini o'ylaydigan, shaxsiy manfaati uchungina odamlarga yordam berib, uni xalq orasida ko'z-ko'z qilishdek uyatli, ayni damda juda achinarli illatlarga jimgina ko'z yumolmaydi. Ta'bir joiz bo'lsa, o'zbekning har farzandi tomirida, har yurak urganida jo'mardlik "mana menman" deya hayqirayotgandek, nazarimizda. Kezi kelganda shuni aytish kerakki, yetmish yoshli nuroniydangina emas, yetti yoshli asl o'zbek farzandidan, uning ota-bobolari, buyuk ajdodlari qanday inson bo'lganining isbotini hech ikkilanmasdan, shubhaga o'rin qoldirmasdan guvohi bo'lishimiz mumkin. Bu kabi oliyjanob hislatlar mujassamlashgan she'rlar, nasriy asarlarni so'zlarimizning asl mohiyatini ochib beruvchi mayoq desak, xato qilmagan bo'lamiz. Xalqimizning necha asrlik tarixini, madaniyatini, urf-odatini zarhal harflar bilan yozilgan manbalardan bilib olar ekanmiz, shu asarlarning bugungi kundagi davomi sifatida xalqimizning qon-qoniga singib ketgan insoniylik timsolini o'zining deyarli barcha asarlarida ifodalagan, "nasrining gultoji" maqomiga chiqargan qalami o'tkir yozuvchi Shukur Xolmirzayevning olqishlarga sabab bo'lgan, asl inson qanday bo'lishiga yana bir bor "haykal qo'ygan" asarlaridan biri "Qush tili" hikoyasidir. Bu hikoyada yoshgina bola ko'chada o'ynab yurganida qanoti qayrilib qolgan qushni ko'rib qoladi. Uni qo'liga olishga juda oshiqadi. Hatto dadasidan najot kutadi" -Ada! - deb baqirdi. Eshik ochilib, birovning tepakal boshi ko'rindi.

-Ada! Anuv yerda bir qush yotibdi! Uch olmaydi! Qanoti mamundoq bo'lib qolgan.

Obering menga" deya qilgan nidosida juda katta ma'no yashirin. Bolaning oddiy sho'xligi, o'yinqaroqligi nazarda tutilayotganda u "ada" deb baqirmagan, balki, sekingina, dada anavi qushni olib bering, o'ynagim kelyapti degan bo'lar edi.[1;126] Lekin u baqirdi, hayqirdi. Bilaks, u oddiy hayqiriq emas edi. U ajdodlarining unga qoldirgan insoniylikdek buyuk hisning barq urishi, ol uni, u

qush yarador, yordam ber deya qilgan xitobi edi. U, yerda bir qush yotgani, ucholmasligini juda katta achinish va hadik bilan aytar ekan, yoshgina, murg'ak qalbga ega bu bolaning tomirlarida buyuk ajdodlarga munosib bo'lish tuyg'usi, asl inson bo'lish kerakligi takror va takror yangrayotgandek edi, nazarimizda. Bolaning bu zorlanib aytayotgan so'zlarini sabr bilan tinglayotgan otaning timsoli esa yuqoridagi fikrlarimizning ayni isbotidir. U "mening bekorchi vaqtim yo'q, boshimni qotirma, nima endi hamma qanoti qayrilgan qushni uyimga olib kelib, hayvonot bog'iga aylantiraymi?" demadi. Aksincha, shoshib kelgan o'g'liga qarata, " -Yur. Hovliqma... Dam olgani kelgan odam shoshmaydi",- deya tanbeh beradi.[2;89] Haqiqiy o'zbek otalariga xos bo'lgan ishni qilgani bilan, ham o'z ajdodlarining qanday buyuk inson bo'lganliklarini isbotlagan bo'lsa, ham kelajakda o'z farzandining bolasiga berajak tarbiyasini hozirdan ko'rsata oldi. Chunki, samimiy, qalbining tubida vijdon va insoniylik barq urib turgan otaning farzandi, albatta, otasiga o'xshashni orzu qiladi.

Ota-bola ikkovi qushning yoniga borganlarida, bir gala qushlar ularning ustida tinmay chug'urlashib uchishadi. Hatto qushlar ham insonga minnatdorchilik bildirayotganday, go'yoki ular yarador qushga yordam berish uchun kelishayotganini oldindan bilgandek. Aslida ham shundaymi? Yo'q, gala qushlar, shunchaki ular bizning yarador oila a'zomizga yordam berishi mumkin deyishmadi.

Shubhalanishgada o'rin yo'q. Chunki, odamlar hech qachon befarq o'tib ketmasligini ular bilar edilar. Shu sababdir, hali ota-bolani yo'lda ko'rib, charx urib chug'urlashishlari. "Najot keldi, najot keldi", - deya olqishlar yog'dirishdi. "Qamariddin xazon ustidagi qushni ko'rib, - Mayna-ku! E-e,- dedi. So'ng ariqdan hatlab o'tib, qushni ko'tardi. Qushcha jonholatda xazonlarga yopishgan ekan, ikki-uch bargni gajak tirnoqlarida changallab tipirchilardi. Qamariddin uning osilgan qanotini tortib ko'rdi. Biqin patlariga puflab qaradi".[3;109]

Otaning kuyunchaklik bilan qushni paypaslab ko'tarishini hech bir mubolag'asiz insoniylikka qo'yilgan haykal desak, adashmagan bo'lamiz. Xuddiki, ota endi tug'ilgan go'dakni, o'z farzandini qo'lga olgandek mehr to'la ko'zlar ila qarardi qushga. Vaholanki, u o'z bolasi emas, oddiy mayna. Ha, lekin u hatto qushning bolasi ekan deb o'ylab ham o'tirmadi. Yaralangan qush jonholatda xazonlarga yopishib yotar ekan, najot kutayotgan otaga, uni shu ko'yga solganlar haqida nola qilayotgandek edi, go'yo. Qushning bu holatini ko'rar ekanmiz, shu xulosaga kelishimiz tabiiy, demak, qush inson tilini biladimi? Yo'q, aslida u zabonimizdagi so'zlarni aytmoqchi emas, u poklik ila yo'g'rilgan qalb tilini nazarda tutmoqda.

Shuning uchundir balki, maynaning odamga o'rganishi. Qushni o'z oila a'zosiday qabul qilgan uy egalari, hatto qush uchun chigirtka, qo'ng'iz, kapalak tutish

maqsadida "ovga" chiqishadi. Yosh bolani-ku o'yin yoki zerikmaslik uchun shu ish bilan mashg'ul bo'ldi desak, ota-onalarichi? Unga ketgan vaqtini kitob o'qishga, yoki biror arzirli ish qilishga sarflasa ham bo'lardi. Biz o'ylayotgan, arzimas, qilishga boshqa ishi yo'q, bekorchilikdan deya qilgan ta'namiz, aslida ulardagi vijdon tuyg'usi. Boringki, o'z vazifasini, insoniylik burchini to'la ado etishdir. Hatto otaning o'z xotiniga, "Uyda zerikaman deyotgan eding, senga ham ish topildi", deya qilgan hazilida ham o'zgacha faxr, hech tushuntirib bo'lmaydigan quvonch bor edi.

"-E, tirik jonmizda!- deb kuldi Qamariddin, so'ng maynani silab, jiddiy tortdi.- Ana shu tirik jon ekanimiz bizni tabiatga bog'lab, o'rtada kantakt o'rnatib turadi. Bir vaqtlar o'zimcha tasavvur qilganman. Ko'z oldingga keltir. Tog' bag'ri! O'rmon, unda qush, hayvonlar bor deylik".[4;67] Otaning mulohazasida aynu haqiqat ko'zga tashlanadi. Qalbimiz, idrokimiz, tirik jon ekanimiz, bizni, o'zimiz tug'ilib o'sgan, musaffo havosidan sipqorib nafas olayotgan tabiatga shu qadar oshufta qilib qo'yadiki, hatto undagi jamiki narsalar suv, daraxt, ekin, maysa, hatto qushlar ham hayotimizning ajralmas bir bo'lagi bo'lib qolganiga guvoh bo'lamiz demoqchi ota. U haqiqiy zavqni tabiatdan, atrofidagi go'zalliklardan oladi. Hatto bir orolga tushib qolsam, tabiiyki, inson bormi deb so'rayman, hech kim bo'lmasa, qushlar bilan, hayvonlar bilan do'stlashaman deya iqror bo'ladi. Inson aslida qush yoki hayvon bilan do'st bo'ladimi? Ular bilan sirlasha, dardlasha oladimi? Agar uning o'zida odamiylik, insof, insoniylik kabi yuksak tuyg'ular bo'lsa qushlarni ham sirdosh biladi. Ular bilan do'stlashadi. Haqiqiy qalbi go'zal insongina atrofdan faqat yaxshilik, go'zallik izlay oladi. Qush ham insonning dardlarini olmoqchi, darddosh bo'lmoqchiday u aytgan so'zlarni takrorlaydi. Ular o'rgatgan Xoliq ismini ko'p bora tilga oladi, murg'akkina qush ham o'zini asrab qolgan odamni xursand qilishga urinib, hatto gapirishni o'rgangani, insonga bo'lgan sadoqati, qilgan yaxshiliklari evaziga bildirgan minnatdorchiligi emasmi? Maynaning har safar Xoliq deganida butun bir oila a'zolari quvonchga to'ladi. Qushlarga do'st tutinishni bir havas deb emas, qalbg'a beruvchi taskin deya e'tirof etadi. Bolaning o'zi bilan birga ota-onasi ham maynaga shu qadar o'rganib qolishdiki, kimning bo'sh vaqti bo'lsa, qushga chigirtka tutib kelishni kanda qilishmaydi. Xuddiki, ularning oilasiga yana bir a'zo qo'shilgandek. Ular juda xursand va baxtiyor edilar. Toki, maynani mushuk yeb ketmaguncha. Bu voqea haqiqiy fojia kabi qarshi olindi. " Mushuk chinorlar ortida ko'zdan pana bo'ldi. Lekin maynaning nolasi baralla eshitilardi: -Xolq, Xolq...

Mushuk maynaning belidan tishlagancha piyozpoyaga qochdi".5Joni endi qaytmasligi bilgan mayna, mushukning changalidan qaytmasligini tushungan

holda so'nggi bor odamga yana va yana rahmatlar aytdi. O'zi o'rgangan, qanchadan-qancha mehr va samimiyatga to'la bu so'zni aytib, ohirgi nafasda ham ularga quvonch ulashmoqchi edi. Og'riqning zarbidan so'zlar uzuq-yuluq, zo'rg'a chiqar edi... "Xolq, Xolq"....

Inson tug'ilib, nima uchun yashayotganini, hayotining qay darajada mazmunli o'tayotganini, ikki olam aro, inson degan nomga munosib ekanligini bilmoqchi bo'lsa, qalbida insoniylik, vijdon va imon tuyg'ularini tiriltirsin. Uni esa, insonlarga, jonivorlarga, qushlarga yordam berib, biron nafi tegsagina uyg'ota oladi. Kimki birovga yaxshilik qilsa, u insoniylik degan maqomga gard yuqturmasdan pok saqlaydi. Bu tuyg'u esa ajdodlar ruhi orqali bizning tomirlarimizda ildiz otmog'i lozim. Tabiat va undagi ajoyibotlarni sevuchi Shukur Xolmirzayev ham bu borada o'ziga xos uslub va yangicha talqin bilan isbotlay olgan. Ayniqsa bu tuyg'uning nasrda bayon etilishi o'quvchi e'tiborini yanada tortadi va o'qishliligini ta'minlaydi. Shukur Xolmirzayevning asarlarida hayotiy voqealarning tasvirlanishi, ayniqsa tahsinga sazovor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xolmirzayev Sh."Yo'llar, yo'ldoshlar".-Toshkent.1984 .126-b
2. Xolmirzayev Sh."Hayot abadiy". G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti-Toshkent.1974 ;89-b
3. Xolmirzayev Sh."So'nmas o't"-Toshkent.1985 ;109-b
4. Hoshimov O'."Badbaxtdala tutquni". "Davr press"-Toshkent.2009;67-b
on